

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KAMAROVA MAFTUNA UMAR QIZI

**BO‘LAJAK KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH
KOMPETENSIYASINI “FLIPPED LEARNING” METODI VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (koreys tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Pedagogical sciences**

Kamarova Maftuna Umar qizi

Bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarining o‘qish kompetensiyasini “Flipped Learning”
metodi vositasida rivojlantirish 3

Камарова Мафтуна Умар кизи

Развитие компетенции чтения у будущих преподавателей корейского
языка с использованием метода “Flipped Learning” 25

Kamarova Maftuna Umar kizi

Development of Reading Competence of Future Korean Language Teachers
through the “Flipped Learning” Method..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KAMAROVA MAFTUNA UMAR QIZI

**BO‘LAJAK KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH
KOMPETENSIYASINI “FLIPPED LEARNING” METODI VOSITASIDA
RIVOJLANTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (koreys tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped4488 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildora Urinbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xafizova Mashxura Aminovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14" mart soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 62807 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "2" mart kuni tarqatildi.
(2026-yil "2" mart dagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.U.Jumanazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E.Rustamova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y.Nurmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar, innovatsion texnologiyalar va ilg'or pedagogik yondashuvlarning jadal rivojlanishi an'anaviy ta'lim shakllarini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, xorijiy tillarni, jumladan koreys tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish talabalarning o'qish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'qish kompetensiyasi xorijiy tilni egallash jarayonida nafaqat til birliklarini o'zlashtirish, balki matni tushunish, sharhlash, muhokama qilish, lingvokulturologik birliklarni anglash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhitining kengayishi va talabalarning mustaqil o'rganishga bo'lgan ehtiyoji oshib borayotgan hozirgi sharoitda an'anaviy dars modeli o'qish kompetensiyasini chuqur rivojlantirish uchun yetarli bo'lmay qolmoqda.

Dunyo ta'lim amaliyotida so'nggi yillarda keng qo'llanilayotgan "Flipped Learning" (teskari ta'lim) metodi ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu metod o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda talaba markaziga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlab, matn bilan ishlashni oldindan tayyorgarlik va auditoriyada chuqur tahlil asosida tashkil etish imkonini beradi. Natijada talabalar matn mazmunini chuqur anglaydi, baholaydi, muhokama qiladi va ijodiy fikr bildiradi. Ilmiy tadqiqotlar "Flipped Learning" metodining ta'lim samaradorligini oshiruvchi ilg'or pedagogik yondashuv ekanini tasdiqlaydi. Mazkur metod AQSh (Garvard, Stenford), Turkiya (MEF Universiteti), Osiyo mamlakatlari (Janubiy Koreya, Tayvan, Xitoy) hamda Yevropa va Okeaniya davlatlari (Ispaniya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Kanada) oliy ta'lim tashkilotlarida keng joriy etilmoqda.

Mamlakatimizda bugungi globallashuv sharoitida ta'lim mazmuni va shakllarini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash, talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etayotganligi bois o'qitish jarayoniga raqamli ta'lim resurslari, interaktiv metodlar hamda kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlisga va butun xalqimizga Murojaatnomasida quyidagilarni alohida ta'kidladi: "Kirib kelayotgan 2026 yil... ta'lim, ilm fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimini – barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili bo'ladi"¹. Bu bayonot "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari doirasida sifatli ta'lim tizimini barpo etish, pedagog kadrlar malakasini oshirish va innovatsion metodikalarni joriy etish ustuvor vazifalaridan biri ekanligini amaliy siyosat nuqtayi nazaridan tasdiqlaydi.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 26-dekabr 2025 y. // President of the Republic of Uzbekistan official website. – Elektron resurs. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8834> (ko'rilgan: 09.01.2026).

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 27-martdagi PQ-157-son “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-sonli “Pedagog xodimlar kasbiy malakasini uzluksiz oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, shuningdek, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-sonli “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2025-yil 8-sentyabrdagi PQ-277-sonli “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, pedagog kadrlar kompetensiyasini rivojlantirish, o‘quv jarayonini interaktiv va refleksiv metodlar asosida modernizatsiya qilish, ta’lim mazmunini kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida yangilashga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi masalalari respublikamizda J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, G.T.Mahkamova, T.K.Sattorov, L.T.Axmedova, D.U.Xoshimova, M.Djusupov, V.I.Andriyanova, F.Sh.Alimov, S.Nazarova, B.G.Qulmatov, I.M.Tuxtasinov, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova² kabi olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan.

² Jalolov J.J., Makhlamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Bakiyeva G., Mahkamova G., Qo‘ldoshev A. English 3. – Toshkent, 2007.; Sattorov T. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка) док. дисс. автореф 2000 й, 32 б., Axmedova L.T. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с., Xashimova D.U. Лингводидактические основы изучения лагун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковой взаимодействий: док. дисс. 2007. – 209 б; Джусупов М. Русский и английский языки в системе школьного полилингвального образования в Узбекистане. Русский язык зарубежом / специальный выпуск / 2017. С. 50-57; 145; 129., Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: Дис. ... док. пед. наук. – Т., 1997. – 350 с; 131., Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida): Avtoref. dis. ... ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. – Toshkent, 2018. – 41 b; 155. Nazarova S. Xitoy tiliga o‘qitishda talabalarning chet tili leksik kompetensiyasini takomillashtirish.: Avtoref. ... dis. ped. fan. bo‘yicha falsafa dok. – Toshkent, 2018. – 49 b; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish.: Avtoref. ... dis. ped. fan bo‘yicha falsafa dok. – T., 2018; 164., Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish.: Avtoref. dis. ... ped. fan. dok. – Toshkent, 2018. – 23 b; Jumanazarov

O‘qish kompetensiyasi masalasi jahon miqyosida W.Greyb, F.L.Stoller, K.Koda, R.Dey, J.Bemford, C.Nuttall, shuningdek koreyalik olimlar J.H.Li va H.J.Jo, MDHda esa T.A.Razuvayeva, T.V.Sapux, G.A.Krasnoshyokova, O‘zbekistonda S.Saidova va D.E.Juraqulova³ kabi tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy hamda amaliy jihatlarida tahlil qilingan.

“Flipped Learning” metodining nazariy asoslari esa dunyo miqyosida J.Devey, L.Vigotsky va B.Blum, Lo va Hyu, Laj, Plat va Treglia, J.Bergman va A.Sams, R.Talbert, M.Barnes, J.B.Shou⁴ kabi ta’limshunoslarning pedagogik qarashlari bilan bog‘liq.

Janubiy Koreyada “Flipped Learning” metodining koreys tili ta’limida qo‘llanishi bo‘yicha J.Y.Kim, S.J.Kim, J.Ch.Pak, Y.H.Song, H.J.Hong, K.H.Kim, H.R.Hong, H.J.Pak kabilar; MDH mamlakatlarida esa Y.V.Zvereva,

U.U. The Importance of Teaching a Foreign Language to Children of Preschool and Younger Educational Age //International Journal of Scientific Trends. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 1-3. A.E.Rustamova Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o‘qitishda talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish.-S.:2021.-136 bet.; Tajibaev G.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet til o‘qitishda kommunikativ yondashuv.: Avtoref. diss. ped. fan. dokt. – T. : 2018. – B. 24.

³ Grabe, W., Stoller, F. L. Teaching and Researching Reading. – London: Routledge, 2011. – 348 p., Koda, K. Insights into Second Language Reading: A Cross-Linguistic Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 344 p., Day, R., Bamford, J. Extensive Reading in the Second Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 228 p., Nuttall, C. Teaching Reading Skills in a Foreign Language. – Oxford: Macmillan Education, 2005. – 312 p., 이정희 외. 「한국어 읽기 교육론」. – 서울: 박이정, 2015. – 400 쪽., 조현주. 「한국어 읽기 교육의 실제」. – 서울: 한국문화사, 2017. – 320 쪽., Разуваева Т.А. Формирование читательской компетенции будущих учителей иностранного языка [Электронный ресурс] // КиберЛенинка. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru> – (дата обращения: 07.09.2024), Сапук Т.В. Процесс формирования читательской компетенции студентов университета [Электронный ресурс]. – 2015. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru> – (дата обращения: 12.01.2025), Краснощёкова Г.А. Формирование читательской компетенции студентов в рамках курса «Иностранный язык для специальных целей» [Электронный ресурс] // Expeducation. – Режим доступа: <https://www.expeducation.ru>, Saidova S. Nofilogik ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda sohaviy matnlar [Elektronnyy resurs] // Scienceproblems.uz. – 2024. – Rejim dostupa: <https://scienceproblems.uz>, Juraqulova D.E.Q. Talabalarning o‘qish kompetensiyasini oshirishda badiiy asarlarning o‘rni [Elektronnyy resurs] // KiberLeninka. – 2025. – Rejim dostupa: <https://cyberleninka.ru>.

⁴ Kim Je Yol, Kim Sung Jo. 한국어 교육에서 의사소통 활성화를 위한 플립드 러닝 (Flipped Learning) 수업 방안 [Koreys tili ta’limida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun Flipped Learning dars modeli] // 외국어로서의 한국어교육 [Chet tili sifatida koreys tili ta’limi]. – 2017. – Vol. 47. – B. 1–25., Pak JinChol. 플립러닝 (Flipped Learning) 기반 한국어 문법 교수용 콘텐츠 제작 연구 [Flipped Learning asosida koreys tili grammatikasini o‘qitish uchun ta’limiy kontent yaratish bo‘yicha tadqiqot] // 언어와 문화 [Til va madaniyat]. – 2022. – Vol. 18. – №11. – B. 100–120., Song Yun Hi. 플립 러닝 (Flipped Learning) 기반 한국어 교육 연구: 문법 수업을 중심으로 [Flipped Learning asosida koreys tili ta’limi: grammatik darslarga qaratilgan tadqiqot] : Magistr dissertatsiyasi. – Tejon: Peje universiteti, 2018. – 120 b., Hong He Jun va Kim Kyong Hwo. 온라인 플립 러닝 (Flipped Learning) 기반 한국어 읽기 교육 방안 연구 [Onlayn Flipped Learning asosida koreys tili o‘qish darslarini tashkil etish bo‘yicha tadqiqot] // 국제어문 [Xalqaro til va adabiyot]. – 2021. – №89. – B. 45–70., Hong Ha Rim. 대학 한국어 수업에서의 플립드 러닝 기반 교수-학습 활동 연구 [Universitet koreys tili darslarida Flipped Learning asosidagi o‘qitish va o‘rganish faoliyatlari tadqiqi] // 한성어문학회 [Hansung til va adabiyot jamiyati]. – 2021. – B. 55–78., Pak Hyun Jin. 플립 수업이 한국어 학습자에게 미치는 인지적 영향 연구 - 담화 분석을 통해 - [Flipped Learning darslarining koreys tili o‘rganuvchilariga kognitiv ta’siri: nutq tahlili asosida]: Tadqiqot hisobot. – Seul: Koreya ilmiy jamg‘armasi (NRF), 2017. – 85 b., Zvereva E. V. Модель перевернутого урока (Flipped Classroom) как одна из техник обучения иностранному языку // Инновационность и мультикомпетентность в преподавании и изучении иностранных языков: сборник научных трудов. – Moscow (Российский университет дружбы народов), 2015. – P. 446–456 Bennet, G. R. & Borasheva, A. (2020). Implementing Flipped Classrooms in Uzbek and Karakalpak EFL Teacher Education. In: Contemporary Foundations for Teaching English as an Additional Language: Pedagogical Approaches and Classroom Applications. Routledge, pp. 211–216.

A.V.Varyuxina, G.R.Bennet, A.Borasheva⁵ kabi tadqiqotchilar ham tadqiqotlar olib borishgan.

Koreys tilini xorijiy til sifatida o'qitishda "Flipped Learning" metodidan foydalanishga oid ayrim ilmiy izlanishlar mavjud bo'lsada, aynan bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirish masalasi bu metod asosida hali yetarlicha chuqur o'rganilmasdan qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy filologik yo'nalishlar va chet til o'qitish metodikasi integratsiyasi" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini "Flipped Learning" metodini qo'llash orqali rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasining tarkibiy-komponentli va funksional tuzilmasini aniqlash hamda uni kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida nazariy jihatdan asoslash;

o'qish kompetensiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi didaktik, metodik va psixopedagogik omillarni belgilash hamda ularni "uch blokli" integrativ tizim asosida tizimlashtirish;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan optimallashtirish kognitiv yuklama mexanizmini ishlab chiqish va uning kognitiv-faoliyatli hamda reflektiv-regulyativ komponentlar samaradorligiga ta'sirini asoslash;

"Flipped Learning" metodini milliy ta'lim tizimi sharoitida kompetensiyaviy, kredit-modul, differensial va aralash ta'lim yondashuvlari asosida interfaol-modulli pedagogik texnologiya sifatida didaktik jihatdan integratsiya qilish;

⁵Kim Je Yol, Kim Sung Jo. 한국어 교육에서 의사소통 활성화를 위한 플립드 러닝 수업 방안 [Koreys tili ta'limida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun Flipped Learning dars modeli] // 외국어로서의 한국어교육 [Chet tili sifatida koreys tili ta'limi]. – 2017. – Vol. 47. – B. 1–25., Pak Jin Chol. 플립러닝 기반 한국어 문법 교수용 콘텐츠 제작 연구 [Flipped Learning asosida koreys tili grammatikasini o'qitish uchun ta'limiy kontent yaratish bo'yicha tadqiqot] // 언어와 문화 [Til va madaniyat]. – 2022. – Vol. 18. – №11. – B. 100–120., Song Yun Hi. 플립 러닝 기반 한국어 교육 연구 문법 수업을 중심으로 [Flipped Learning asosida koreys tili ta'limi: grammatik darslarga qaratilgan tadqiqot]:– Daejeon: Paichai universiteti, 2018. – 120 b., Hong He Jun va Kim Kyong Hwo. 온라인 플립 러닝 기반 한국어 읽기 교육 방안 연구 [Onlayn Flipped Learning asosida koreys tili o'qish darslarini tashkil etish bo'yicha tadqiqot] // 국제어문 [Xalqaro til va adabiyot]. – 2021. – №89. – B. 45–70., Hong Ha Rim. 대학 한국어 수업에서의 플립드 러닝 기반 교수-학습 활동 연구 [Universitet koreys tili darslarida Flipped Learning asosidagi o'qitish va o'rganish faoliyatlari tadqiqi] // 한성어문학회 [Hansung til va adabiyot jamiyati]. – 2021. – B. 55–78., Pak Hyun Jin. 플립 수업이 한국어 학습자에게 미치는 인지적 영향 연구 - 담화 분석을 통해 - [Flipped Learning darslarining koreys tili o'rganuvchilariga kognitiv ta'siri: nutq tahlili asosida], – Seoul: Koreya ilmiy jamg'armasi (NRF), 2017. – 85 b., Zvereva E. V. Модель перевернутого урока (Flipped Classroom) как одна из техник обучения иностранному языку // Инновационность и мультикомпетентность в преподавании и изучении иностранных языков: сборник научных трудов. – Moscow (Российский университет дружбы народов), 2015. – P. 446–456 Bennet, G. R. & Borasheva, A. (2020). Implementing Flipped Classrooms in Uzbek and Karakalpak EFL Teacher Education. In: Contemporary Foundations for Teaching English as an Additional Language: Pedagogical Approaches and Classroom Applications. Routledge, pp. 211–216.

e-School platformasi asosida modulli-kontentli o'qitishni tashkil etish orqali raqamli mikrodarslar, muammoli-amaliy topshiriqlar, kollaborativ faoliyat va reflektiv baholashga tayanuvchi o'quv jarayonining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini tajriba-sinov yo'li bilan aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini "Flipped Learning" metodi orqali rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida "Flipped Learning" metodini qo'llash asosida bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik shakl, usul va vositalari olingan.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqotda ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, diagnostik (kuzatish, anketa, test, so'rovnomalar), pedagogik tajriba-sinov va natijalarni matematik statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'qish kompetensiyasining tarkibiy-komponentli va funksional modeli kompetensiyaviy, hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida ishlab chiqilib, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi "didaktik", "metodik", "psixopedagogik" omillar "uch blokli" integrativ tizim asosida tizimlashtirilishi natijasida ularning o'zaro "maqsad va mazmun-jarayon-natija" uzviyligi ilmiy asoslangan;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida optimallashtirilgan kognitiv yuklama modeli "interaktiv", "hamkorlikda ishlash", "muammoli o'qitish", "reflektiv faoliyat", "o'z-o'zini baholash", "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" texnologiyalari integratsiyasi asosida ishlab chiqilishi o'qish kompetensiyasining "kognitiv-faoliyatli" va "reflektiv-regulyativ" komponentlarining samaradorligini ta'minlashiga xizmat qilgan;

"Flipped Learning" metodini milliy ta'lim tizimiga "kompetensiyaviy", "kredit-modul tizimi", "differensial va aralash ta'lim" asosida "raqamli mikrodarslar", "muammoli-amaliy topshiriqlar", "kollaborativ faoliyat", "reflektiv baholash"ga tayanuvchi interfaol-modulli pedagogik texnologiyaning didaktik integratsiya qilinishi talabalarning pedagogik modul asosida kontentni "kognitiv assimilyatsiya qilishi", "mustaqil o'quv amaliyotini amalga oshirishi", "interaktiv baholash", "individual didaktik qayta aloqa" orqali o'quv jarayonini metodik jihatdan optimallashtirishning samarali mexanizmi ekanligi amaliy isbotlangan;

e-School platformasi orqali modulli-kontent asosida *video-ma'ruzalarni o'zlashtirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish, interaktiv testlar va individual didaktik qayta aloqa olish, sinxron onlayn mashg'ulotlarda amaliy va muhokama faoliyatini tashkil etish* orqali talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirokini oshirish va shu orqali "Flipped Learning", "Blended Learning", "Student-Centered Learning", "Active Learning" kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga integratsiyalash imkonini berishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

koreys tili o'qitish an'anaviy metodlarining nazariy va amaliy jihatlari hamda koreys tilini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar,

innovatsion yondashuvlar va interaktiv metodlar haqida batafsil ma'lumot berilgan "Koreys tili o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan (SamDChTI nashriyoti, 2025-yil, №367/18, ISBN 978-9910-242-36-6);

Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Janubiy Koreyaning "Korea Foundation" jamg'armasi va Kyong Hi Kiber Universiteti hamkorligida e-School platformasi orqali "Korean e-School" dasturi doirasida "Flipped Learning" metodiga asoslangan ta'lim jarayoni tashkil etilgan (SamDChTI 2024-2025-o'quv yili).

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishda foydalanilgan nazariy ma'lumotlar va metodlar ishonchli manbalarga asoslanganligi, tahlil va mulohazalar puxta o'rganilganligi, tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar orqali tasdiqlangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, hamda olingan natijalar tegishli mutaxassislar va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari "Flipped Learning" metodining bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi nazariy-metodik asoslarini takomillashtiradi. O'qish kompetensiyasining tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan xulosalar koreys tilini o'qitish metodikasi nazariyasini boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari bo'lajak koreys tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida "Flipped Learning" metodini qo'llash, o'qish kompetensiyasini rivojlantirish hamda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va topshiriqlar tizimidan oliy ta'lim tashkilotlarida, maxsus kurslar va malaka oshirish tizimida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'limda koreys tilini o'qish kompetensiyasini "Flipped Learning" metodi vositasida rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'qish kompetensiyasining tarkibiy-komponentli va funksional tuzilmasi kompetensiyaviy hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida ishlab chiqilganligi, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi didaktik, metodik va psixopedagogik omillar "uch blokli" integrativ tizim asosida tizimlashtirilganligi hamda ularning "maqsad va mazmun – jarayon – natija" uzviyligi ilmiy jihatdan asoslab berilganligi haqidagi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2023–2025-yillarda amalga oshirilgan IL–27–4722022413-sonli "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining "Komparativistika" elektron platformasini yaratish jarayonida foydalanildi (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 5-sentabrdagi 04-04-1/4990-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar "Komparativistika" elektron platformasi kontentini loyihalash va metodik jihatdan ta'minlashda nazariy-amaliy asos sifatida xizmat qildi;

bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida optimallashtirilgan kognitiv yuklama modeli "interaktiv", "hamkorlikda ishlash", "muammoli o'qitish", "refleksiv faoliyat", "o'z-o'zini baholash" va "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" texnologiyalari integratsiyasi asosida ishlab chiqilishi o'qish kompetensiyasining "kognitiv-faoliyatli" va "refleksiv-regulyativ" komponentlarining samaradorligini ta'minlashga xizmat qilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat vazirligi huzuridagi Kasb-hunar o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (NTQTTI) tashabbusi bilan 2021–2024-yillarda Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan xalqaro loyiha ("The Project for Establishment of Vocational Training Center in Urgench district of Khorezm region, Strengthening Capacity for Establishing the National Skills Testing and Certification System and Establishment of Teachers' Training Center in Uzbekistan") doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat vazirligi huzuridagi Kasb-hunar o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining 2025-yil 4-iyundagi 09-03/09-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, xalqaro loyiha doirasida ta'lim jarayoni samaradorligi oshib, zamonaviy raqamli va interaktiv yondashuvlarga asoslangan mashg'ulotlar o'qish kompetensiyasining kognitiv-faoliyatli va refleksiv-regulyativ komponentlarini samarali rivojlantiruvchi barqaror pedagogik tajriba sifatida shakllandi;

"Flipped Learning" metodini milliy ta'lim tizimiga kompetensiyaviy, kredit-modul tizimi va differensial-aralash ta'lim asosida, raqamli mikrodarslar, muammoli-amaliy topshiriqlar, kollektiv faoliyat va refleksiv baholashga tayanuvchi interfaol-modulli pedagogik texnologiya sifatida didaktik integratsiya qilinishi talabalarga pedagogik modul asosida kontentni kognitiv assimilyatsiya qilish, mustaqil o'quv amaliyotini amalga oshirish, interaktiv baholash va individual didaktik qayta aloqa orqali o'quv jarayonini metodik jihatdan optimallashtirishning samarali mexanizmini ta'minlashini amaliy jihatdan isbotlanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 29-maydagi 1637/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur interfaol-modulli pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning o'quv kontentini kognitiv assimilyatsiya qilish, mustaqil o'quv amaliyotini bajarish, interaktiv baholash va individual didaktik qayta aloqa orqali o'quv jarayonini samarali optimallashtirishga xizmat qiluvchi barqaror pedagogik tajriba sifatida shakllandi;

e-School platformasi orqali modulli-kontent asosida video-ma'ruzalarni o'zlashtirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish, interaktiv testlar va individual didaktik qayta aloqa olish, shuningdek, sinxron onlayn mashg'ulotlarda amaliy va muhokama faoliyatini tashkil etish orqali talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirokini oshirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar - "Flipped

Learning”, “Blended Learning”, “Student-Centered Learning”, “Active Learning”ni amaliyotga integratsiyalash imkonini beruvchi ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanali tomonidan 2025-yil 20-may kuni “Samarqand” radiokanalida efirga uzatilgan “Kun mavzusi” eshittirishining ssenariysi tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanalining 2025-yil 23-maydagi 01-07/195-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu ma’lumotlar “Kun mavzusi” eshittirishining ssenariy mazmunini ishlab chiqishda metodik asos sifatida qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 141 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi dalillangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari ko‘rsatilgan; ilmiy yangilik ifodalangan, tadqiqotning amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan va ularning nazariy-amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “O‘qish kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida koreys tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonining tarixiy bosqichlari, unda qo‘llanilgan asosiy metodlar hamda bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilarida o‘qish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari batafsil tahlil qilingan. Shu bilan birga, o‘qish kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy komponentlari, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida modellashtirilishi va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi pedagogik omillarning uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda isbotlangan. Bobning keyingi qismida esa “Flipped Learning” metodining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari keng yoritilib, xalqaro va milliy tajribalar misolida uning afzalliklari va samaradorligi tahlil qilingan.

Bugungi kunda koreys tili jahon miqyosida ommalashib, ko‘plab mamlakatlarda xorijiy til sifatida o‘qitilmoqda. Bu holat Janubiy Koreyaning iqtisodiy, madaniy va ta’lim sohalaridagi global ta’siri bilan bog‘liq.

Koreys tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda asosan “Grammatik tarjima” metodi (문법번역식 교수법), “To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish” metodi (직접 교수법), “Audiolingvistik metod” (청각구두식 교수법), “Mazmunga asoslangan o‘qitish” (내용 중심 교수법) kabi metodlardan foydalanilgan. Bugungi innovatsion ta’lim sharoitida “Flipped Learning” (플립드 러닝), “Kommunikativ yondashuv” (의사소통 중심 교수법), “Vazifaga asoslangan til o‘qitish” (과업 중심 교수법) kabi zamonaviy metodlar ham faol joriy qilinmoqda⁶.

O‘qish kompetensiyasi chet til ta’limida shunchaki matnni o‘qish emas, balki uni idrok etish, mazmunini tahlil va talqin qilish hamda yangi bilim hosil qilishni qamrab oluvchi murakkab jarayondir. Greyb va Stoller uni lingvistik bilim, psixologik mexanizm va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liq murakkab kognitiv jarayon sifatida izohlasa⁷, Koda interaktiv model asosida fonetik, morfologik va sintaktik bilimlar bilan birga o‘quvchining dunyoqarashi va tajribasining ahamiyatini ta’kidlaydi⁸. Gudman uni psixolingvistik jarayon, Dey va Bamford keng qamrovli o‘qishni ilmiy va kasbiy poydevor, Koda esa o‘qishni interaktiv jarayon sifatida talqin qilgan. Janubiy Koreyalik tadqiqotchilar, jumladan I Jong Hi, Cho Hyon Ju, Pak Chin Chol va Song Yung Hi o‘qish kompetensiyasining metodik va strategik ahamiyatini ta’kidlaydilar⁹. Psixolingvistik jihatdan esa u diqqat, xotira va tafakkur mexanizmlariga asoslanadi hamda ona tilidagi strategiyalarning chet tilga ko‘chishi va chalkashliklar yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Shu bois, bo‘lajak koreys tili o‘qituvchilari o‘qish jarayonining mazmuniy, strategik va psixologik mexanizmlarini bilishi, ularni amaliyotda qo‘llashi zarur.

Koreys tilini o‘qitishda o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish filologik jihatdan matnni nafaqat texnik tushunish, balki undagi lingvokulturologik birliklarni anglash bilan bog‘liqdir. Madaniyatga oid so‘zlar 한복 (hanbok — milliy libos), 설날 (Sollal — Yangi yil bayrami), 추석 (Chusok — hosil bayrami), idiomalar 밭 벗고 나서다 (“oyoq kiyimini yechib tashlab ishga kirishmoq” — ya’ni “katta ishtiyoq bilan ish boshlash”), 하늘의 별 따기 (“osmondan yulduz uzish” — ya’ni “juda qiyin ish”) va milliy realiyalar 김치 (kimchi), 한강 (Han daryosi), 경복궁 (Kyongbuk saroyi)ni izohlash orqali talabalar koreys xalqining qadriyatlari va madaniy kontekstini chuqurroq anglaydilar. Filologik yondashuv matnning leksik, semantik va madaniy qatlamlarini uyg‘un holda o‘zlashtirishga yordam beradi, shu orqali o‘quvchilarda lingvistik bilim, madaniy idrok va interkultural kompetensiya kompleks tarzda rivojlanadi.

O‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda leksik-semantik munosabatlarni anglash muhim ham o‘rin tutadi. Sinonimlar (masalan, “chiroyli” ma’nosini beruvchi 아름답다 – 예쁘다 – 곱다) lug‘at boyligini kengaytirsam, antonimlar

⁶ Kim H.J. Modern Approaches to Teaching Korean as a Foreign Language. – Seoul: Korean Language Education Press, 2018. – 215 p.

⁷ Grabe W., Stoller F. L. Teaching and Researching Reading. — London: Pearson Education, 2002. — 256 p.

⁸ Koda K. Insights into Second Language Reading. — Cambridge: Cambridge University Press, 2007. — 340 p.

⁹ 이정희. 한국어 교육에서 읽기 교수·학습 방안 연구 / 이정희. — 서울: 박영사, 2015. — 210 p.

(크다 (katta) – 작다 (kichik), 행복하다 (baxtli) – 불행하다 (baxtsiz)) qarama-qarshi ma'nolarni anglashni chuqurlashtiradi, metaforalar esa ("yuragi issiq", ya'ni "mehribon" ma'nosini beruvchi ibora - 마음이 따뜻하다) obrazli tafakkurni rivojlantiradi. Pragmatik vositalar, jumladan hurmat kategoriyalari (-(으)시) va diskurs markerlari (근데 (lekin), 그러니까 (shuning uchun), 하여튼 (har holda)) matnning izchilligini ta'minlaydi. Shuningdek, koreys madaniyatiga xos tushunchalar – 정(情) ("mehr", "bog'liqlik") va 효(孝) ("ota-onaga sadoqat") lingvomadaniy idrokni kengaytiradi. Demak, o'qish kompetensiyasi bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida markaziy o'rin tutib, tilni chuqur egallash, lingvokulturologik birliklarni anglash va mustaqil fikrlashni ta'minlaydi. Uning psixolingvistik, kognitiv va filologik asoslari, shuningdek metodik yondashuvlar kasbiy kompetensiyani shakllantirishda ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

"Flipped Learning" an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, dars jarayonida nazariy bilimlarni mustaqil ravishda oldindan o'rganish, dars vaqtida esa ularni tahlil qilish, muhokama qilish va amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvdir. Ushbu metod talabalarni bilim olish jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, mustaqil ta'lim, tanqidiy va tahliliy fikrlash, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Metodning asosiy tamoyillari **oldindan mustaqil ta'lim → sinfda faol interaktiv mashg'ulotlar → individuallashtirilgan o'quv jarayoni → o'qituvchi-talaba interaktiv hamkorligi → bilimlarni amaliy qo'llashga** asoslanadi.

Metodning nazariy asoslari konstruktivizm, Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi hamda Blum taksonomiyasiga tayanadi. Bu yondashuvda talabalar bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirib, dars jarayonida tahlil, sintez va baholash kabi murakkab intellektual faoliyatni amalga oshiradilar.

"Flipped Learning" konsepsiyasi dastlab 1990-yillarda AQSh va Yevropada shakllanib, E.Mazurning "peer instruction" metodida shakllangan, keyinchalik J.Bergman va A.Sams tomonidan amaliyotga joriy etilib, "Khan Academy" kabi tashabbuslar orqali keng ommalashgan. Raqamli texnologiyalar ("Moodle", "Google Classroom", "Edmodo") bilan uyg'unlashuvi uning samaradorligini yanada oshirib, ta'limni individuallashtirish va monitoring qilish imkoniyatini yaratdi, nazariy bilimlarni darsdan tashqarida mustaqil o'zlashtirish, dars vaqtida esa muhokama va amaliy faoliyatni tashkil etishga asoslandi. Osiyo tajribasida ham metodning samaradorligi tasdiqlangan. Janubiy Koreyada FL ingliz va koreys tili darslarida motivatsiya va ishtirokni kuchaytirgan, xorijiy talabalar nutq samaradorligini oshirib, bezovtalikni kamaytirgan¹⁰. Xitoyda 20 ta tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilda akademik natijalarga sezilarli ijobiy ta'sir (ta'sir o'lchami 0,66) qayd etilgan¹¹. Yaponiyada maxsus tadqiqotlar kam bo'lsa-da, FL

¹⁰ Sim S., Kim H. Effects of flipped learning on Korean language speaking skills // Journal of Korean Language Education. — 2020. — Vol. 31(4). — P. 45–67.

¹¹ Lo C.K., Hew K.F., Chen G. Flipped classrooms for EFL learners: A meta-analysis // Educational Research Review. — 2021. — Vol. 34. — 100402.

til o‘qitishda istiqbolli metod sifatida e’tirof etilmoqda¹². Xalqaro tadqiqotlar ham bu natijani mustahkamlaydi: Butanda FL asosida o‘qish strategiyalarini qo‘llash post-test natijalarini sezilarli oshirgan¹³; Turkiyada esa koreys tili so‘zlashuv ko‘nikmalari, motivatsiya va kommunikativ kompetensiya yaxshilangani aniqlangan¹⁴. Umumiy meta-tahlillar FLning til o‘qitishda (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, lug‘at) keng ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatmoqda. Demak, “Flipped Learning” nafaqat akademik ko‘rsatkichlarni, balki talabalar motivatsiyasi, ishtiroki va psixologik tayyorgarligini kuchaytiruvchi samarali metod bo‘lib, ayniqsa o‘qish kompetensiyasini shakllantirishda yuqori natija beradi. Quyida “Flipped Learning” metodining an’anaviy ta’lim modelidan farqli jihatlari keltirilgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval

An’anaviy ta’lim modeli va “Flipped Learning” metodining farqli xususiyatlari

Me'zonlar	An'anaviy ta'lim modeli	“Flipped Learning” metodi
O‘qituvchining roli	Bilim beruvchi va o‘quv jarayonining asosiy subyekti sifatida ishtirok etadi	Ta’lim jarayonini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va fasilitator vazifasini bajaradi
Talabalarning o‘quv faoliyati	Asosan reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, tayyor bilimlarni qabul qilishga yo‘naltirilgan	Mustaqil izlanish, tahlil va muhokamaga asoslangan faoliyat yuritadi
Dars jarayonining mazmuni	Nazariy bilimlarni auditoriyada tushuntirishga ustuvorlik beriladi	Nazariy materiallar auditoriyadan tashqarida o‘zlashtiriladi, auditoriya mashg‘ulotlari esa amaliy va tahliliy faoliyatga yo‘naltiriladi
O‘zlashtirish sur‘ati	Barcha talabalar uchun yagona sur‘atda amalga oshiriladi	Har bir talabaning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi
Ta’lim jarayonining interaktivligi	Past darajada bo‘lib, asosan bir yo‘nalishli (o‘qituvchi → talaba) muloqot shaklida amalga oshiriladi	Yuqori darajada bo‘lib, ko‘p yo‘nalishli (talaba ↔ talaba, talaba ↔ o‘qituvchi) hamkorlikka asoslanadi
O‘quv resurslaridan foydalanish	O‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan materiallar bilan cheklanadi	Raqamli ta’lim resurslari, onlayn platformalar va multimodal materiallardan foydalanishga asoslanadi
Baholash tizimi	Asosan summativ baholash (test, nazorat ishi) orqali amalga oshiriladi	Formativ baholash, o‘zaro baholash va refleksiya elementlarini o‘z ichiga oladi

“Flipped Learning” metodi o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi ***aniq didaktik va metodik jihatlari*** bilan alohida ahamiyat kasb etadi:

- talabalarda o‘qish jarayonini mustaqil tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiradi, jumladan matn bilan individual ishlash, noma’lum leksik birliklarni kontekst asosida aniqlash va asosiy g‘oyani ajratib olish malakalarini rivojlantiradi;

¹² Ozawa T. Implementing flipped classroom in Japanese universities: Potentials and challenges // Asian EFL Journal. — 2020. — Vol. 27(3). — P. 112–129.

¹³ Phuntsho P. Enhancing reading comprehension through flipped classroom model in Bhutan // ResearchGate. — 2022.

¹⁴ Yilmaz R. Flipped learning in teaching Korean as a foreign language: A Turkish case study // ERIC. — 2019.

- o'qilgan matn mazmunini tushunish va tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantiradi, xususan, axborotni tanlab olish (skimming), izlab topish (scanning) hamda yashirin ma'noni anglash (inferensiya) kabi strategiyalarni amaliy qo'llash imkonini yaratadi;

- auditoriya mashg'ulotlarida matn asosida tashkil etiladigan interaktiv va kolaborativ faoliyat (munozara, muammoli savollar, guruhli topshiriqlar) orqali talabalarning muloqotda o'qilgan matnni talqin qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi;

- raqamli ta'lim resurslari va oldindan tayyorlangan videodarslar orqali o'qish jarayonini individuallashtirish imkonini yaratib, har bir talabaning o'zlashtirish sur'ati va ehtiyojlariga moslashadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Flipped Learning metodining bo'lajak koreys tili o'qituvchilarini tayyorlashda qo'llanilishi" deb nomlangan. Oliy ta'lim tashkilotlarida Koreys tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning o'qish (읽기) kompetensiyasi shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Talabalarda dastlab o'qish malakasi vujudga kelib, u izchil rivojlanish jarayonida kompetensiya darajasiga yetadi. Mazkur jarayon quyidagi bosqichlar orqali tavsiflanadi¹⁵:

- *mexanik o'qish bosqichi* (기계적 읽기) – bu bosqichda talabalar koreys yozuv tizimi (Hangil)ni o'zlashtiradilar, harf-tovush mosligini anglaydilar hamda bo'g'in va so'zlarni to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Ushbu bosqich asosan texnik o'qish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi;

- *asosiy tushunish bosqichi* (기본 이해) – mazkur bosqichda talabalar alohida so'zlar va sodda gaplar mazmunini anglay boshlaydilar¹⁶. Shuningdek, koreys tilining sintaktik tuzilishi va asosiy grammatik shakllarini o'qish jarayonida idrok etish qobiliyati shakllanadi. Bu bosqich o'qish malakasining semantik asosini tashkil etadi¹⁷;

- *chuqur tushunish bosqichi* (심층 이해) - talabalar matnning mantiqiy tuzilishini anglash, asosiy va ikkilamchi axborotni farqlash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda muallif fikrining umumiy yo'nalishini tushunish ko'nikmalarini egallaydilar;

- *tanqidiy o'qish bosqichi* (비판적 읽기) – bu bosqichda talabalar matn mazmunini tahlil qilish, dalillarni baholash, muallif pozitsiyasini aniqlash va turli nuqtayi nazardan fikr yuritish kompetensiyasini shakllantiradilar. Tanqidiy o'qish talabalarning analitik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi;

- *ijodiy o'qish bosqichi* (창의적 읽기) – mazkur bosqichda talabalar matndan ilhomlanib yangi g'oyalar ilgari surish, matn mazmunini o'z nuqtayi nazaridan qayta talqin qilish hamda uni boshqa kommunikativ vaziyatlarga moslashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

¹⁵ Kim H. J. Development of Reading Competency in Korean as a Foreign Language Learners. – Seoul: Korean Language Institute, 2020. – 198 p.

¹⁶ Choi S. H. Developing Basic Comprehension Skills in Korean Language Learners // Korean Language Education Journal. – 2021. – Vol. 37, №1. – P. 55–70.

¹⁷ Jung H. Y. Understanding Korean Sentence Structure and Grammar in Language Learning // Journal of Korean Linguistics. – 2020. – Vol. 45, №2. – P. 101–115.


Koreys tili metodikasida o'qish kompetensiyasi lug'at va grammatika bilimlari (어휘 및 문법 교육), o'qish strategiyalarini egallash (읽기 전략 지도), matn turlariga mos yondashuvlarni qo'llash(텍스트 유형별 읽기 접근법), tanqidiy fikrlash hamda baholash (비판적 사고 및 추론 능력 개발) va fikr-mulohaza mexanizmlarini (읽기 평가 및 피드백 제공) o'z ichiga oluvchi kompleks tizim sifatida qaraladi. Ushbu komponentlar talabalarda matnni anglash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilib, o'qish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Mazkur nazariy yondashuvlar O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida koreys tilini o'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan o'quv adabiyotlarida ham aks etgan. Xususan, 2-kurs talabalari uchun asosan "Yonsei Reading 2" va "문화가 있는 한국어 2-3" (*Korean Language with Culture 2-3*) darsliklaridan foydalanilib, ular o'qish kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga lug'at, grammatika va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodik jihatdan, "Yonsei Reading" darsligi lingvistik va kognitiv komponentlarni, "문화가 있는 한국어 2-3" (*Korean Language with Culture 2-3*) esa lingvokulturologik hamda ijodiy jihatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, mazkur darsliklar zamonaviy ta'lim yondashuvlariga, xususan, "Flipped Learning" metodining talablariga to'liq mos kelmaydi, chunki ularda mustaqil tayyorgarlikka yo'naltirilgan interaktiv topshiriqlar, multimediya vositalari va ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi mashqlar yetarli emas. Shu sababli, mavjud darsliklarni elektron platformalar va innovatsion resurslar bilan boyitish orqali ularning samaradorligini oshirish zarur.

Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ pedagogik model ishlab chiqildi. Model kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida qurilib, o'qish kompetensiyasining kognitiv-faoliyatli hamda reflektiv-regulyativ komponentlarini uzviy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Model "uch blokli" integrativ tizim asosida tashkil etilgan: maqsadli blok — o'qish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik yo'nalish; mazmuniy-jarayonli blok — o'quv mazmuni va jarayonlarni "Flipped Learning" metodiga tayangan holda tashkil etish, interaktiv va muammoli o'qitish, hamkorlikda ishlash, reflektiv topshiriqlar va o'z-o'zini baholash mexanizmlari integratsiyasi; natijaviy-baholovchi blok — o'qish kompetensiyasini baholash, diagnostika vositalari va monitoring orqali talabalarning bilim faoliyatini tizimli rivojlantirish.

Modelda e-School platformasi texnologik komponent sifatida integratsiya qilingan. Platforma orqali talabalarga modulli-kontent, video-ma'ruzalar, interaktiv topshiriqlar, individual didaktik qayta aloqa va sinxron onlayn mashg'ulotlar taqdim etiladi. Shu orqali o'quv jarayonida talabalarning faol ishtiroki oshadi va zamonaviy pedagogik yondashuvlar — "Flipped Learning", "Blended Learning", "Student-Centered Learning", "Active Learning" — amaliyotga samarali integratsiyalanadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ pedagogik modelning tavsifi

Taklif etilgan model talabalarining bilimlarini kognitiv assimilyatsiya qilish, mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish va refleksiv baholash orqali o'zlashtirish mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan o'qish kompetensiyasi bilim, faoliyat va shaxsiy rivojlanish darajalarida izchil takomillashtiriladi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan integrativ pedagogik model bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tizim sifatida namoyon bo'lib, o'quv jarayonida didaktik,

metodik va texnologik komponentlarning uyg'unligini ta'minlaydi. Modelning amaliy samaradorligi esa raqamli ta'lim muhiti va "Flipped Learning" metodini elektron platformalar bilan uyg'unlashtirish orqali yanada kuchaytiriladi.

Mazkur yondashuv xalqaro hamkorlik doirasida, xususan, Kyong Hi Kiber Universiteti bilan tashkil etilgan o'quv jarayonlarida tajribadan o'tkazildi. Modulli-kontent, raqamli mikrodarslar, interaktiv topshiriqlar va sinxron onlayn mashg'ulotlar integratsiyasi o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik resurs sifatida o'z samaradorligini namoyon etdi. Shu asosda ishlab chiqilgan modelning didaktik imkoniyatlari va metodik xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

